

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD 03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

NAJMIDINOVA NILUFAR YULDOSHOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI “SHAXSNI OBRO‘SIZLANTIRISH”
MAZMUNLI IFODALARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertatsion abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Najmidinova Nilufar Yuldoshovna

О‘zbek tilidagi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi3

Najmidinova Nilufar Yuldoshovna

Linguistic examination of expressions containing “discredit of the person” in the uzbek language27

Нажмидинова Нилуфар Юлдошовна

Лингвистическая экспертиза смысловых выражений дискредитации личности в узбекском языке49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ55

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD 03/04.06.2021.Fil.132.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

NAJMIDINOVA NILUFAR YULDOSHOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI “SHAXSNI OBRO‘SIZLANTIRISH” MAZMUNLI
IFODALARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4286 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon davlat pedagogika instituti veb-sahifasi (www.kspi.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Odilov Yorqinjon Rahmonallyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Hasanov Akbarjon Abdurashidovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "2" may soat "11"⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99873) 542-38-38, faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz)

3 Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "19" 04 dagi 25 - raqamli reyestr bayonnomasi)


M.X.Hakimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.X.To'raxojayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash a'zosi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.M.Jamoliddinova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahon tilshunosligida fanlararo integratsiyaning faollashib borishi sababli ijtimoiy hayotdagi muammolarning tub ildizlarini aniqlash va ularning kompleks yechimlarini topishda samarali natijalarga erishilmoqda. Bu jarayonda leksik-lisoniy birliklar asosiy vosita sanalib, tilning inson hayotidagi o'rnini ortib bormoqda. Xususan, tilning huquqshunoslik sohasi bilan aralashuvi, ziddiyatli va muammoli matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish masalalari tilshunoslik va huquqshunoslik sohalari o'rtasidagi aloqani ta'minlab, davlat va nodavlat markazlari faoliyatida amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Dunyo tilshunosligida lingvistik ekspertiza kriminalistik holatlarda matnni tahlil etish va dalillarni aniqlashda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Sohaga oid qator ilmiy tadqiqotlarda kriminalistik vaziyatlardagi muammoli holatlarga lingvistik ekspertiza orqali aniqlik kiritilgan. Buning natijasida ingliz ta'lim muassasalarida maxsus lingvist-ekspertlar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar tashkil etilgan, kriminolingvistik xulosalar berishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar shakllangan.

O'zbek tilshunosligida nazariy muammolarni o'rganish jarayonida tildan amaliy foydalanish bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasining taraqqiy etishi bilan tilshunoslik yutuqlari boshqa gumanitar fanlar tadqiqiga ham tatbiq qilinmoqda. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida qo'lga kiritilgani tasodifiy emas"¹. Respublikamizda sud-huquq tizimini takomillashtirish, kriminalistika bilan bog'liq matnlarning mohiyatini yoritish, anonimlik holatlarini izchil asoslash, jinoiy ishlarni xolis baholashda lingvistik ekspertizaning ahamiyati katta. Shu ma'noda lingvistik ekspertiza bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ham o'zbek amaliy tilshunosligini yangi natijalar bilan boyitadi, tergov hamda sudlov jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois o'zbek tilidagi "shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli ifodalarning lingvistik tadqiqi bugungi kun tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 171.

to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Lingvistik ekspertizaning aynan qachon yuzaga kelganligini aniq dalil bilan asoslash qiyin, ammo ilm-fanga kirib keluvchi har qanday istilohning o‘z tarixi, shakllanish bosqichi va taraqqiyot davri bo‘ladi. Lingvistik ekspertiza ham aniq bir davrda vujudga kelgan va alohida soha sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan keyin shakllangan. Nutqda qo‘llanuvchi so‘z va gaplarning turli atributlari, xususan, ularning mazmunida shaxsni obro‘sizlantirish, haqoratlash, kamsitish, shaxsga nisbatan tuhmat ifodalayotganligini aniqlash, unga ilmiy asosda xulosa bera olish bugungi kunda dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Dastlab lingvistika va yurisprudensiyaning bog‘liqligi masalasi rus tilshunoslari Y.L.Ziyangirova va Y.A.Grishenkova tadqiqotlarida yoritilgan. Ekstremizm bilan bog‘liq matnlar lingvistik ekspertizasi M.V.Ablin tadqiqotida o‘z aksini topdi². Lingvistik ekspertizaning shakllanishi va amaliyotga tatbiqini A.N.Baranov, K.I.Brinev, I.V.Jarkov, Y.N.Bondarenko³ o‘z ishlarida tavsifladi. Haqorat bilan bog‘liq holatlarda lingvistik ekspertiza tasnifi N.D.Golev, Y.I.Galyashina⁴ tomonidan amalga oshirildi.

² Аблин М.В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2016. – С.162.

³ Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. Учеб. пособие. – М: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.; Бринеv К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – С. 252.; Бринеv К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Кемерово, 2010. – С. 72.; Жарков И.В. и др. Методические рекомендации по вопросам лингвистической экспертизы спорных текстов СМИ. – Москва, 2010. – С.105.; Бондаренко Е.Н. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-комментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики, 2014. №10. – С. 27-29.

⁴ Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика: проблемы и перспективы: Межвуз. сб. научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1999. – С. 7.; Голев Н.Д. «Взял для себя все» / Юрислингвистика-5: Юридические аспекты, права и лингвистические аспекты языка. Сб. научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2004. – С. 246-251.; Голев Н.Д. Об объективности и легитимности источников лингвистической экспертизы / Юрислингвистика-3: Проблемы юрислингвистической экспертизы: Межвузовский сборник научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С. 14-29.; Голев Н.Д. Актуальные проблемы юрислингвистической экспертизы / Юрислингвистика-3: Проблемы юрислингвистической экспертизы: Межвузовский сборник научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С. 5-14.; Галяшина Е.И. Основы судебного речеvedения. Монография. – М.: СЕЭНСИ, 2003. – 236 с.; Галяшина Е.И. Правовой статус судебной лингвистической экспертизы / Цена слова. – М.: СТЭНСИ, 2002. – С. 228-237.

Jahonda ijtimoiy tarmoq xabarlari va anonim xatlarni lingvistik ekspertiza qilish tamoyillari M.Kultxard, Tim Grant, N.Smit⁵ tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, kriminalistik vaziyatlarda lingvistik ekspertizani tashkil etish masalalari A.Nini tadqiqotlarida yoritildi⁶.

O'zbek tilshunosligida yuridik til va huquqiy masalalarga oid ilmiy nazariyalar A.Saidov, M.Mirhamidov, S.Hasanov, X.Hayitov tadqiqotlarida yaratildi⁷. Sud nutqi va leksikasi masalasi Q.Mo'ydinov⁸ ishlarida asoslab berildi. Yuridik hujjatlarni lingvistik bilimlar asosida tahlil qilish xususida K.N.Qayumova⁹ tadqiqot ishlarini olib bordi. Shuningdek, aynan lingvistik ekspertiza borasida K.Musulmonova¹⁰, shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishini lingvistik ekspertiza orqali aniqlash bo'yicha tadqiqot D.A.To'rayeva¹¹ tomonidan bajarildi. Ushbu tadqiqotlar til va huquqning bog'liqligidagi muayyan muammoli masalalarni yechishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Biroq o'zbek tilshunosligida aynan shaxsni obro'sizlantirish bilan bog'liq holatlar lingvistik ekspertizasi ilmiy tadqiqot sifatida maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi "shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli ifodalarning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ularni lingvistik ekspertizasini o'tkazishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi, shakllanishi haqidagi mavjud nazariyalarni o'rganish;

o'zbek tilidagi matnlarning haqorat mazmunli jihatlarini belgilash va tavsiflash;

"shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli til birliklari lingvistik ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

⁵ Smith N.-J. A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters: Doctor of Philosophy Autoref... Dis. – Surrey: Psychology Department University Of Surrey, 1996. – P. 334; .Coulthard M., Johnson A. Introduction to forensic linguistics. – NY.: Routledge, 2007. – P. 250.; Grant T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. – Birmingham: Linus, 2020 – P. 128.

⁶ Nini A. Authorship profiling in a forensic context: Doctor of Philosophy. Autoref... Dis. – London, 2004. – P. 250.

⁷ Saidov A., Sarkisyan G. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994; Saidov A., Saidova L., Kuchimov Sh., Qosimova M. Қонун ва тил. – Тошкент: Иктисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997. – 168 б. Мирҳамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004. – 146 б. Хайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти: Юрид. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2011. – 206 б.

⁸ Мўйдинов Қ. Ўзбек тили суд нутқи лексикаси: Филол. фан.фалс. д-ри. дисс. – Т., 2019. – 145 б.

⁹ Қаюмова К.Н. Предикативликнинг синтактик-семантик хусусиятлари (халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари инглиз, ўзбек ва рус тиллари материаллари киёсий таҳлили асосида): Филол. фан.фалс. д-ри дисс. автореф. – Т., 2019. – Б.25.

¹⁰ Musulmonova K.X. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. fals. d-ri. ... diss. – Qo'qon, 2022. – 132 b.

¹¹ To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Filol. fan. fals. d-ri. ... diss. – Qo'qon, 2022. – 137 b.

haqoratlash mavjud matnlarda ekspertizaning yuridik va lingvistik tomonlarini ochib berish;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini tayinlash xususiyatlarini belgilash, ularga lingvistik xulosa berish;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini o‘tkazishda leksikografik manbalarning ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy hayotdagi kommunikativ munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunini o‘zida aks ettirgan og‘zaki va yozma matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlarda ifodalangan til birliklarining sud-lingvistik ekspertizasini tayinlashning lingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada deduksiya, induksiya, kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, statistik, kontekstual va konseptual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlarga sud-lingvistik ekspertiza tayinlash masalalari, bunday mazmunli matnlarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazishning ilmiy-amaliy asoslari hamda matnni shakliy-mazmuniy ekspertizadan o‘tkazish sabablari aniqlangan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlarning sud-lingvistik ekspertizasi verbal va noverbal birliklarning lisoniy tahlili asosida amalga oshirilishi, bunday mazmunli matnlarni lingvistik baholashning leksik, semantik va lingvopragmatik xususiyatlari ilmiy asoslangan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlar orqali obro‘sizlantirish, kamsitish, tuhmat qilish tushunchalarining o‘xshash va farqli xususiyatlari, sud lingvistik ekspertizasida obro‘sizlantirish, kamsitish, tuhmat nutqiy aktlarining sodir bo‘lishini ommaga bildirilish omillarini hisobga olgan holda lingvokriminalistik baholash belgilari dalillangan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasi o‘tkazishda haqorat va tuhmat aktlari o‘rtasidagi farqlar asoslangan holda lingvistik xulosa berish yo‘llari, og‘zaki va yozma tarzda qo‘llangan haqorat ma‘noli so‘z, ibora, maqol, ishora va gaplar haqoratlash akti sifatida baholanishi, sud-lingvistik ekspertizasini o‘tkazishda leksikografik manbalarning zarurligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli til birliklari lingvistik ekspertizasining o‘ziga xos xususiyatlari o‘zbek tilidagi matnlarning haqorat mazmunli jihatlarini belgilash va tavsiflash asosida aniqlangan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini tayinlash haqoratlash mavjud matnlarda ekspertizaning yuridik va lingvistik tomonlari tahliliga asoslanishi dalillangan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida hamda sud-lingvistik ekspertizasi nazariyasini

rivojlantirishda leksikografik manbalarning amaliy ahamiyatga ega ekanligi belgilangan;

dissertatsiya turli kriminalistik matnlarning lingvistik ekspertizasiga bag'ishlanadigan tadqiqotlarni olib borishda nazariy asos vazifasini bajarishi, shuningdek, ekspert qarorlarini xulosalashga ko'maklashishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqot ishlariga nazariy jihatdan tayanilganligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertizasi markazi hamda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi sud ekspertizasi ekspert-xodimlari, Manchester universiteti professori A.Nini va Aston universiteti professori, general-mayor Tim Grant tajribasi va tavsiyalariga asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-sonli "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sud-lingvistik ekspertizasi nazariyasini rivojlantirishga yordam berishi, o'zbek tilshunosligida lingvistik ekspertizaning alohida soha sifatida rivojlanishi, muammoli matnlarga lingvistik ekspertiza belgilash, turli kriminalistik matnlarning lingvistik ekspertizasiga bag'ishlanadigan tadqiqotlarni olib borishda nazariy asos vazifasini bajarishi, shuningdek, ekspert qarorlarini xulosalashga ko'maklashishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yurislingvistika, lingvistik ekspertologiya bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilidagi "shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

"shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli matnlarga sud-lingvistik ekspertiza tayinlash masalalari, bunday mazmunli matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishning ilmiy-amaliy asoslari hamda matnni shakliy-mazmuniy ekspertizadan o'tkazish sabablari haqidagi ilmiy xulosalardan 2019–2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42-raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 2-noyabrdagi 01-2314-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu loyihadagi so'zlarning ma'no xususiyatiga ko'ra tasniflash va yangi misollar bilan boyitilishi ta'minlangan;

"Shaxsni o'bro'sizlantirish" mazmunli matnlarning sud-lingvistik ekspertizasi verbal va noverbal matnlar bo'yicha amalga oshirilishi, bunday mazmunli matnlarni lingvistik baholashning leksik, semantik va lingvopragmatik xususiyatlari ilmiy asoslanganligi bo'yicha berilgan xulosalardan 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 1-noyabrdagi 01-2306-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish, korpusni ilmiy manbalar bilan boyitish, xususan, lug‘atlar qismining takomillashuviga erishilgan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasi o‘tkazishda haqorat va tuhmat aktlari o‘rtasidagi farqlar asoslangan holda lingvistik xulosa berish yo‘llari, og‘zaki va yozma tarzda qo‘llangan haqorat ma’noli so‘z, ibora, maqol, ishora va gaplar haqoratlash akti sifatida baholanishiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalining “Oydin hayot live” tok-shousi, “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining “Bugunning gapi” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanali davlat muassasasining 2021-yil 8-oktabr №01-13-1594-son; O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali davlat muassasasining 2021-yil 18-oktabrdagi №01-16/201-son ma’lumotnomalari). Natijada ko‘rsatuvlar ssenariylari boyitilgan, OAVda shaxsning sha’ni, uning qadr qimmatini huquqiy himoya qilish uchun uning tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari ham ilmiy tadqiq etilgan, bu borada asosli manbalar tayyorlanayotganligi sababli fuqarolarning o‘zaro muloqotlarda e’tiborli bo‘lishini keng targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

“shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini o‘tkazishda leksikografik manbalarning zarurligi va ahamiyati borasidagi xulosalarini asoslashda Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida 2021-2024-yillar hamda Sud-ekspertlik ilmiy tadqiqot institutining 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishida, jumladan, Markaz tomonidan o‘quv seminarlar tashkil etilganda hamda “Sud-lingvistika ekspertizalarida haqoratomuz, obro‘sizlantiruvchi so‘zlarning semantikasi” nomli qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 2025-yil 4-yanvardagi 29-23-5/872-sonli xati). Natijada sud-lingvistika ekspertizalarini o‘tkazish jarayonida haqoratomuz, obro‘sizlantiruvchi so‘zlarning tahlilida amaliy manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumani va seminarida ma’ruza ko‘rinishida bayon qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr ettirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnalda) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi **“Haqorat mazmunli matnlar lingvistik ekspertizasining umumnazariy asoslari”** deb nomlangan boʻlib, uning dastlabki fasli *“Sud-lingvistik ekspertisasi va uning oʻziga xos xususiyatlari”*ga bagʻishlangan. Sud lingvistik ekspertizasining yoʻnalishlari, shaxsni obroʻsizlantirish mazmunidagi ishlar boʻyicha sud lingvistik ekspertizasining nazariy asoslari hamda haqorat bilan bogʻliq holatlarni baholash metodlari haqidagi paragraflarida ushbu masalalar haqida fikr yuritilib, uning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Maʼlumki, sud-huquq tizimi rivojlangan mamlakatlarning sudlov jarayonlarida sud-lingvistik ekspertizadan keng foydalaniladi. Jinoiy ishdagi bahsli oʻrinlarga yechim topish, jinoyatlarni ochish, shuningdek, fuqarolar oʻrtasidagi ziddiyatli vaziyatlar (haqoratlash, kamsitish hamda tahqirlash holatlari)ni hal qilishda faqat yuridik asoslarga tayanilmay, balki psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tarix, mantiq, falsafa, matematika, tilshunoslik kabi fundamental fanlarni puxta oʻzlashtirgan professional kadrlarining xizmatlaridan foydalanish orqali odil sudlovga erishilmoqda. Bu, shubhasiz, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi faollashganining natijasidir. Shu maʼnoda B.Mengliyev: *“Tilning amaliy funksiyasi fanning turli tarmoqlarida keng ishlay boshladi. Ushbu koʻrsatilgan omillar zamonaviy tilshunoslik boʻyicha qator tadqiqotlarning yaratilishiga sabab boʻldi¹²”* deb taʼkidlaydi.

Ilgʻor mamlakatlarda sudlov va tergov faoliyatida dastlabki lingvistik ekspertizalar oʻtgan asrning 90-yillaridan boshlab amalga oshirilgan. U huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligiga ancha yordam bergani sababli tez taraqqiy qila boshlagan. Biroq sud-lingvistik ekspertisasi boʻyicha amaliy tajriba va uslubiy tavsiyalarning yoʻqligi yoki yetishmasligi nutqni sudlov uchun ekspertizadan oʻtkazish va kutilgan natijalarni olishda murakkabliklar saqlanib qolavergan. Albatta, bu borada amalga oshirilgan keyingi ishlar tajriba sifatida muhim boʻlgan va shu tarzda ekspertizadan ekspertizaga ijobiy natijalarni bera boshlagan. Ammo hozirgi kunda oʻzbek sud-lingvistik ekspertologiyasiga shaxsni obroʻsizlantiruvchi holatlarni lingvistik ekspertizadan oʻtkazish uchun koʻplab murojaatlar kelib tushayotgani bu tip ekspertiza uchun asoslangan yondashuvlarni belgilashni taqozo qiladi.

¹²Mengliyev B., Karimov R. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus // Journal Of critical reviyews, 2020. Vol 7, issue 17; Mengliyev V., Sobirova Z. Some issues related to the transfer of yenglish tourism terms in uzbek language // Journal of critical reviyews, 2020. Vol 7, issue 15. – B.165-170.

Ma'lumki, badiiy asar tahlili jarayonida muallif yashagan davr, ijtimoiy tuzum haqida muayyan xulosalarni olish mumkin. Bundan tashqari tahlil asarning g'oyaviy yo'nalishi va muallif strategiyasini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shuningdek, lingvistik ekspertizada og'zaki va yozma nutq aktlari tekshiriladi va bunda til bo'yicha nazariy bilimlar amaliyotga bevosita tatbiq etiladi. Sud jarayonida mavjud dalillar, guvohlarning ko'rsatmalari, ayblanuvchining ko'rsatmasi tekshiriladi. To'plangan barcha materiallarni umumlashtirish va yakuniy qarorga kelishda dalillar, og'zaki va yozma nutqlarni ekspertiza qilish muammoni yechishga yordam beradi. Lingvistik adabiyotlarda ushbu termin keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda tushunilganda uch jihatni o'z ichiga oladi:

- a) qonunning yozma tili;
- b) qonuniy kontekstda so'zlashish;
- d) tildan dalil sifatida foydalanish.

Tor ma'noda tushunilganda til faktlari ziddiyatli matn dalili sifatida xizmat qiladi¹³.

Lingvistik ekspertiza sud ekspertizasining mustaqil turlaridan biri bo'lib, tergovgacha bo'lgan va tergov jarayonida yig'ilgan dalillarni asoslash hamda ularni isbotlash jarayonida qo'llaniladi. Ushbu ekspertiza lingvistik tahlil orqali matnli dalillarni mazmunan va lingvistik jihatdan baholashga qaratilgan bo'lib, tergov organlariga ishonchli ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi. So'nggi yillarda "tilshunoslik ekspertizasi" atamasi keng ishlatib kelinmoqda. Mazkur ekspertizada asosiy e'tibor yozma nutqni leksik va uslubiy jihatdan o'rganishga qaratiladi¹⁴. Biroq nutq hodisasi aks etadigan ekspertiza obyektlari va u bilan bog'liq sud ishlarining ko'payishi mohiyatan keng qamrovli ekspertiza turiga ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Ana shu ehtiyoj negizida sud-lingvistik ekspertizasi yuzaga keldi va u sud ekspertizalari tizimidan o'rin oldi. Shu bilan birga, lingvistik bilimlar sudlovga tatbiq etilishi zarurligi belgilandi.

Protsessual jihatdan lingvistik ekspertizani jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan, tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan amaliy faoliyat turi sifatida baholash mumkin. Ekspertiza daliliy ma'lumotni olish usullari yoki vositalaridan biri va ushbu ma'lumotni boshqa usullar bilan olish imkoni bo'lmaganda lingvistik ekspertiza tayinlanadi. Tilshunoslik aspektida lingvistik ekspertiza – obyekt haqida haqiqat/yolg'onni tavsiflovchi ma'lumotlarning muallifini aniqlash mumkin/mumkin emasligini belgilaydigan holatlarni o'rganish turi"¹⁵. "Sud-lingvistik ekspertizasida ekspertga qo'yiladigan savollardan kelib chiqadigan tadqiqot mavzusi to'g'risida nutqda

¹³Malcom C., Johnson A. The Routledge handbook of forensic linguistics (Routledge Handbooks in Applied Linguistics). – London: Routledge, 2010. – P. 673.

¹⁴Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвической экспертизы. (Методические рекомендации) – М., 2002. – С.13.

¹⁵Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвической экспертизы. (Методические рекомендации) – М., 2002. – С.15.

gumonlanuvchi/jabrlanuvchi to'g'risida salbiy ma'lumotlar mavjud degan xulosaning to'g'ri/noto'g'riligi tekshiriladi"¹⁶.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "*Shaxsni obro'sizlantirish*" mazmunli ishlarga sud-lingvistik ekspertizasi tayinlanishining o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanadi.

Hozirgi kunda barcha sohada bo'lgani singari sud-ekspertiza faoliyatida ham yangi ishlanmalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunga axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jinoiy yoki boshqa qilmishlarning yangi ko'rinishlari hamda vositalari paydo bo'layotganligi, ularning odil tergov va sudlovni amalga oshirish muddatlarini cho'zib yuborishga olib kelayotganligini ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy tarmoq va boshqa aloqa kanallarida og'zaki va yozma tarzda haqorat, so'kish, obro'ga putur yetkazish, plagiat, korrupsiya holatlarini baholash va tahlil qilish ehtiyoji ham kuchayib bormoqda. Bu sud-lingvistik ekspertizasining zarurligini bildiradi. Shu ma'noda respublikamizda lingvist-ekspert tayyorlash, adabiyotlar yaratish va maxsus markazlar faoliyatini tashkil etish bir zarurat bo'lsa, sud-lingvistik ekspertizasining mohiyatini ochib berish, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish yana bir zaruratdir.

Bugun aksariyat hollarda huquqbuzarlik va jinoyatlarning katta qismi dahanaki tahdid, so'kish, obro'sizlantirish orqali bo'layotganini ko'rish mumkin (1-rasm). Shaxsni qo'rqitish, qalloblik, majburlash, poraxo'rlik, haqorat qilish, tuhmat qilish kabi holatlarda ma'muriy yoki jinoiy ish ochish, boshqa xil faoliyatlarning jinoiy yoki jinoiy emasligini asoslab berishga ehtiyojning kuchayishi til va huquq o'rtasidagi munosabatda shakllangan lingvistik ekspertiza fanini paydo qildi. Albatta, lingvistik ekspertizadagi eng muhim jihat nutq mazmuniga lingvistik baho berish va bunga erishish uchun tilshunoslik bilan huquqshunoslik fanlari faol integratsiyalashuvi lozim.

Shaxsni obro'sizlantiruvchi ifodalarni shakliga ko'ra yozma va og'zaki, ma'no ifodalash vositalarini esa verbal va noverbal birliklarga bo'lish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ayblamoq* so'zining birinchi ma'nosi – "*aybli deb topmoq*", "*ayb qo'ymoq*" ekanligi qayd qilingan. Huquqiy ma'nosi "*jinoiy ayb qo'ymoq*", deyilgan. Lug'atdagi ikkinchi ma'nodan jinoiy qilmishni amalga oshirganligi isbotlanmay turib, kishini aybdorga chiqarish va buni ommaga tarqatish shaxsni obro'sizlantirishga kirishi ma'lum bo'ladi. Bunday xatti-harakat qonunan taqiqlangan, ommaga e'lon qilinsa, shaxsning obro'sizlanishi aniq. Bunday hollarda ma'lumot tarqalgan vaqt va joydagi voqea-hodisani batafsil o'rganish talab etiladi.

Mazkur bobning "*Sud-lingvistik ekspertizasi jarayonida haqoratlanganlikni baholash mezonlari*" deb nomlangan uchinchi faslida lingvistik ekspertiza o'tkazishda qo'llaniladigan metodlar, adabiyotlar va yondashuvlar haqida fikr yuritilgan.

¹⁶Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта // URL:<http://silberiaexpert.com/publ/problema> (дата обращения: 24.05.2011).

Ekspertlik-lingvistik tekshiruvining “tahliliy mohiyati” bir-biridan farq qiladi. Tilshunoslik ekspertizalarida juda ko‘p usullar qo‘llanadi. Bunday xilma-xillik, qaysi til birligida xabar berilganligi bilan bog‘liq. Tahlil uchun ajratib olingan til birliklarining tabiatiga ko‘ra, ekspert xulosalarida keltirilgan tahlilning asosiy ko‘rinishlari ikki asosiy turga bo‘linishi mumkin: shakliy va mazmuniy. Shuni ta’kidlash kerakki, bu turlar, garchi ular birgalikda xulosalarda sanab o‘tilsa-da, aslida muqobildir, chunki ularda turli a’zolik tamoyillaridan foydalanadi.

Eng keng tarqalgan, an’anaviy tur tilni leksik va grammatik daraja va qarama-qarshiliklarga ajratishga asoslangan. Bunda matn asosiy til birliklariga (morfemalar, so‘zlar, jumlar) va leksik va grammatik ma’nolarga ajratiladi. Mutaxassis til birliklarining barcha turlarini tahlil qilishi kerak, chunki mazmunni ifodalashning barcha usullari, shakliy yondashuv bilan u tomonidan olib borilgan tahlil turlarining (usullarining) to‘liq ro‘yxatini tuzishi lozim. Albatta, bunday ro‘yxatni to‘g‘ri tuzish qiyin, to‘liq va mantiqiy qilish oson emas. Bundan-da muhimi, tahlil turlarini inventarizatsiya qilish lingvist-ekspertning o‘zi va uning harakatlarini tushunish uchun juda oz narsa beradi. Ehtimol, shuning uchun tahlil turlari (usullar)ning ro‘yxati ilmiy jihatdan farq qiladi va ko‘pincha bitta ekspertning tadqiqotlarida ham turlicha bo‘ladi. Masalan, nodavlat ekspertlik tashkilotining veb-saytida lingvistik ekspertiza usullari quyidagicha ko‘rsatilgan: 1) leksik tahlil; 2) morfologik tahlil; 3) semantik tahlil; 4) sintaktik tahlil; 5) grammatik tahlil; 6) uslubiy tahlil.

Dissertatsiyaning **“Shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlarda sud-lingvistik ekspertizasi o‘tkazish va natijalarni baholashning kriminolingvistik asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobidagi *“Shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli materiallarga sud-lingvistik ekspertizasini tayinlashning o‘ziga xosliklari*” nomli birinchi faslida haqorat mazmunli materiallar tahliliga yuridik va lingvistik jihatdan yondashilib, kuzatish va tahlillar yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Ma’lumki, qonunlar nimani qilish mumkin-u, nimani qilish mumkin emasligini, umuman olganda, ruxsat va taqiqlarni belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasi *haqorat qilish* tushunchasini oydinlashtiradi va unda haqorat qilishdan tiyilish izohlanadi. Yuqoridagi moddada shaxsni haqorat qilish mumkin emasligi va unga muayyan jazo muqarrar ekanligi belgilab qo‘yilgan. Biroq so‘z, gap yoki biror harakatning qachon haqorat mazmuniga ega bo‘lishi aniq chegaralab berilmagan va buni konkret nutq parchasisiz izohlash imkoni kam. Bu esa maxsus lingvistik bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan vazifadir.

Haqorat – shaxs sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish. Haqorat qilish (og‘zaki, yozma) yoki xatti-harakat (tupurish, nomaqbul imo-ishora (nomaqbul ishoralarga odamlar orasida haqorat sifatida qabul qilinadigan harakatlar, masalan, ko‘rsatkich barmoqni peshonaning yon tomoniga qo‘yib, barmoqni aylantirish *“aqli past, jinni”* ma’nosini bildiradi, barmoqlar orqali odamning jinsiy a’zolari va jinsiy yaqinlik qilishni anglatuvchi ishoralar) shaklida ham bo‘lishi mumkin.

Obro‘sizlantirish, haqorat kabilar bor lisoniy ifodalar uchun avval belgilangan asosiy ekspertiza ma’lumotlari yetarlicha darajada aniq bo‘lmaganda, sud-

lingvistik o'rganish natijalarining to'liq va batafsil ekanligiga hukm chiqaruvchi tomonda shubha yoki savol tug'ilganda, sud-lingvistik ekspertizasi o'tkazuvchi mutaxassis tomonidan unga taqdim qilingan materiallarning barchasi o'rganilmaganda va boshqa shunday holatlar yuzaga kelganda, sud tomonidan muammoga aniq va adolatli hukm chiqarish maqsadida qo'shimcha sud-lingvistik ekspertizasi tayinlanadi. Bu ham sud-lingvistik ekspertizasi tayinlashning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Haqorat sifatida qaralayotgan matnga tashxis qo'yish jadvali

1-jadval.

№	Tashxis belgilar	Tuhmat, yoki noqonuniy tarqatish orqali obro'sizlantirishga sabab bo'lsa (+) aksincha bo'lsa (-) qo'yiladi
1	shaxs yoki tashkilot haqida salbiy xarakterdagi ma'lumotlar xabar qilinganda	+
2	salbiy mazmunli ma'lumot ma'lum shaxs yoki tashkilotga nisbatan tarqatilganda	+
3	salbiy ma'lumotlar faktik bo'lmaganda	+
4	salbiy mazmunli yoki noto'g'ri axborot ommaviy va noqonuniy tarqatilganda	+
5	ma'lumotlarning umumiy mazmunida obro'sizlantirish axloqiy me'yorlarga zid yoki qonun buzilishi) belgisi bo'lganda	+
6	matnning axborot xarakteri (maqola, eslatma, ommaviy nutq, bayonot, so'rov, ishonchnoma, eslatma, murojaat, axborot xabari va boshqalar), muallifning axborot maqsadi	+
7	ma'lumotlarning haqiqatga mos kelmasligi (sud tomonidan belgilanganda)	+
8	salbiy ma'lumotlar nomaqbul ifodalanganda – so'kish, obro'sizlantirish ma'noli so'zlarni ishlatish	+
9	ma'lumotlarni ularning yolg'onligini bila turib tarqatish (sud tomonidan tasdiqlanganda)	+
10	ma'lumot qonunda ruxsat etilgan tarzda e'lon qilinmaganda	-
11	matndagi so'z, ibora va maqollar maxsus lug'atlarda haqorat ma'nosini anglatish belgilab qo'yilganda	-

Qo‘shimcha sud-lingvistik ekspertizasi asosiy ekspertiza natijalarini aniqlashning, undan foydalanishning chorasi topilmaganda, shuningdek, ma‘muriy tartibda ko‘rilayotgan ishning avval o‘rganilgan holatlari bo‘yicha yangi savollar tug‘ilganda, agar ekspertni so‘roq qilish paytida bunday tushuntirishlarni olishning iloji bo‘lmaganda tayinlanadi. Qo‘shimcha sud-lingvistik ekspertizasi o‘tkazishga mas‘ullar vakolatli tashkilotlar tomonidan belgilanadi. Bunda ma‘muriy ish xuddi shu lingvist-ekspert (yoki ekspertlar komissiyasi) yoki boshqa lingvist-ekspertlar (ekspertlar komissiyasi)ga topshirilishi mumkin.

Mazkur jarayonlarda ekspertni so‘roq qilish mexanizmidan ham foydalaniladi. Ekspertni so‘roq qilish – ekspertning o‘zi o‘tkazgan ekspertiza munosabati bilan qo‘shimcha so‘rovga chaqirishdir va bu jarayon surishtiruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Sud-lingvistik ekspertizasi yuqorida sharhlangan vaziyatlardan tamoman bo‘lak holatlarga nisbatan ham tayinlanishi kuzatiladi. Masalan, badiiy asarlardagi muayyan shaxs yoki toifa egalarini, qaysidir kasb egalarini haqorat, tuhmat qilish, tahqirlash, irqiy kamsitish kabi holatlar ham sud-lingvistik ekspertiza qilinishi mumkinmi? Bunga zaruriyat bormi? Badiiy asarga shunday ekspertiza tayinlash to‘g‘rimi yoki yo‘qmi? Hozirgacha ushbu holat bahsli masala hisoblanadi. Bu borada o‘zbek tilida biror manba, qo‘llanma mavjud emas.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Shaxsni obro‘sizlantirish*” mazmunli materiallarga huquqiy va lingvistik xulosa berish” deb nomlanib, lingvistik ekspertizaning huquq bilan bog‘liq xususiyatlari, xulosa berish masalalari ochib berilgan.

Aksariyat holatlarda ekspert matn vaziyati, nutq aktiga muvofiq gipotezaga asoslangan xulosa berishga majbur bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, ayblanuvchining jiddiy e‘tiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asosan aytish mumkinki, haqorat mazmunli matnlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasini tashkil etishda aniqlanishi lozim masalalar uch xil bo‘ladi:

1) *nutq aktining kimga yoki nimaga qaratilganligi, qanday mazmundaligi*. Bu jarayonda haqoratli matn aynan bir kishiga qaratilganmi yoki ishora qilinganmi; haqorat mazmunli matn omma oldida ishlatilganmi yoki individual holatda qo‘llanganmi kabi masalalar aniqlashtiriladi. Masalan, “*San manjalaqi manga umuman gapirma*” jumlasida haqorat aynan bir shaxsga qaratilgan. “*Ayrim itmijozlar xezligini qib yuruvradi*” jumlasida esa muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga qarata aytilgan.

2) *nutq aktida adresantning munosabati haqida xulosa beriladi*, ya‘ni nutq predmetiga qanday munosabat bildirilgan va nutq predmeti qanday baholangan kabilar. Masalan, “*Ochiqdan ochiq o‘g‘irlik-ku, qanaqasiga chidab o‘tiribdi odamlar*”, “*It yurish, to‘ng‘iz mijoz bo‘lishday gap-ku*” kabi holatlarga nisbatan.

3) *maqsadga ko‘ra ish ko‘riladi*, ya‘ni nima uchun bu haqda xabar berilgan? Bunda kommunikativ maqsad baholanadi. Aynan qasddan obro‘sizlantirish mazmunidami yoki yo‘qmi, degan masala o‘rganiladi. Masalan: “*O‘l bu*

kuningdan, parazit. Xalq sanga n.....ya ishonmiydi, bunaqa g.....n yurishing bilan odamlarga aql o'rgatishingga balo bormi, xaromi, nahssan, esing bo'lsa ko'chaga chiqma endi, shu vidyongni ko'rib, xalq betingga tupurib, ketingga tepishga tayyor”.

Ushbu tarkibiy qismlarga muvofiq lingvist-ekspert tahlil usullarini tanlashi mumkin.

Haqorat mazmunli matnlar bo'yicha o'tkaziladigan sud-lingvistik ekspertizalarida haqorat ma'nosini ifodalovchi turli belgilar alohida ajratiladi. Quyidagi 2-jadvalda buni yaqqol ko'rish mumkin:

Jadvalga muvofiq, haqoratlash holatlarining diagnostik belgilari ko'rsatiladi. Tasdiq ishorali shakllar haqorat belgilari bor ekanligini ko'rsatadi. Lingvistik jihatdan asoslash lozim bo'lgan o'rinlarda esa lingvistik ekspertiza tashkil etish ehtiyoji yuzaga keladi. Bunday holatlarda umumiy ekspertiza muallifning jinsi, yoshi, ma'lumoti; matn muallifining ijtimoiy, kasbiy, hududiy mansubligi, matn muallifining ijtimoiy holati kabilarga aniqlik kiritiladi. “Vaziyatning yuridik jihati esa haqorat yoki tuhmat qilinish shakli (omma oldidami), huquqiy xavflilik belgilarini aniqlashtiradi. Matnda noma'lum va aniqlashtirilishi lozim bo'lgan masalalar uchun esa lingvistik ekspertiza belgilanadi.”¹⁷

Haqoratning diagnostik belgilari

2-jadval

Haqoratning diagnostik belgilari	Haqorat sifatida baholash
Haqorat mazmunli matnlarning dalillik tabiati (daliliy ma'lumotlar)	✓
Haqorat bilan bog'liq salbiy ma'lumotni muayyan jismoniy yoki yuridik shaxs bilan bog'lash	✓
Haqorat mazmunini ifodalagan birlikning shaxs sha'ni, obro'siga daxl qilish darajasining yuqoriligi	✓
Haqoratning ishlatilishi bilan bog'liq nutqiy vaziyat: omma oldida, ommaviy chiqishlar orqali, xat shaklida, ijtimoiy tarmoq orqali, to'g'ridan to'g'ri va hokazo	✓

Tadqiqot ishining “**Shaxsni obro'sizlantirish**” mazmunli matnlar sud-lingvistik ekspertizasining mavzu va manbalari” deb nomlangan uchinchi bobining “*Shaxsni obro'sizlantirish*” mazmunli matnlarning sud-lingvistik ekspertizasida tuhmat, sha'n, qadr-qimmat tushunchalari talqini” nomli birinchi faslida mazkur tushunchalarning manbalardagi talqinlari tahlil qilingan.

Fan-texnika rivojlangani sari kishilar o'rtasidagi muloqot vositalarining turlari va ularning ifoda imkoniyatlari ortmoqda. Jahon axborot tarmog'ida suzib yurgan son-sanoqsiz ma'lumotlarning ayrimlari to'g'ri maqsadni ko'zlagan bo'lsa, ayrimlari kimningdir sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga, badnom qilishga

¹⁷Стернин И.А., Антонова Л.Г., Карпов Д.Л., Шаманова М.В. Основные понятия лингвокриминалистической экспертизы. – Ярославль, 2013. – С. 8.

xizmat qiladi. So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali bir shaxsga nisbatan boshqa shaxs yoki guruhlar tomonidan tuhmat qilinish holatlari tez-tez uchramoqda. Bu holat lingvistik ekspertologiya uchun qator muammoli vaziyatlarni taqdim etmoqda. Lingvistik ekspertiza o‘tkazishga asoslangan muammoli holatlarning katta qismini tarmoq orqali qilingan tuhmat aktlari tashkil etadi. Shu o‘rinda dastlab “*tuhmat*” nimaligi haqida bilishimiz lozim.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *tuhmat* so‘zining arabcha ekanligi, “birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o‘ylab chiqarilgan asossiz da’vo; bo‘hton”, so‘zlashuv tilida “ortiqcha tashvish, dardisar”¹⁸ ma’nosini anglatishi aytiladi. Tuhmat tushunchasi haqidagi aniq tasavvur “*xizmatga tuhmat*” birikmasi mazmunida yaqqol namoyon bo‘ladi. Lug‘atda u “kimsaga xizmat, yaxshilik qilib, oxiri aybdor bo‘lib qolish yoki o‘ziga tashvish, dardisar orttirish; yaxshilikka yomonlik” deb izohlanadi.

Sud-lingvistik ekspertizasida *tuhmat* so‘zi bilan birga *bo‘hton* leksik birligi ham ko‘p uchraydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *bo‘hton* so‘zining arab tilidan o‘tganligi, “birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o‘ylab chiqarilgan asossiz da’vo” ekanligi qayd qilinadi¹⁹. Huquqiylashgan manbalardagi ma’lumotlarda “bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirma tarqatish, sha’ni, qadr-qimmatini kamsitilishiga olib keluvchi yolg‘on ma’lumotlar berish” *tuhmat* hisoblanishi aytiladi, bu tushuncha yanada huquqiylashtirib, aniqlashtirib izohlanadi. Shundan kelib chiqib, u yoki bu gap, fikr tuhmat hisoblanar ekan, unda quyidagi uch belgi bo‘lishi lozim:

1) tuhmat qilayotgan shaxs o‘zi tarqatayotgan ma’lumotning yolg‘on ekanligini oldindan bilib noto‘g‘ri xabar beradi;

2) tarqatilayotgan ma’lumot yoki aytilayotgan xabar unga aloqasi yo‘q jismoniy va yuridik shaxsga nisbatan qaratiladi;

3) tarqatilayotgan ma’lumotda alohida shaxsni yoki muayyan tashkilotni sharmanda qilish, ijtimoiy mavqeyini yerga urish ehtimoli katta bo‘ladi.

Lingvistik ekspertologiyada obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlardan umuman da’vogar haqidagi salbiy ma’lumotlar hamda sharmanda qiluvchi ma’lumotlar ajratiladi. Masalan, saylovda muvaffaqiyatsizlikka uchraganlik fakti siyosatchi va uning qarindoshlari tomonidan salbiy qabul qilinadi, uning siyosiy raqiblari tomonidan esa g‘alaba deb qabul qilinadi va siyosiy liderlikka da’vogarlar uchun odatiylashib qolgan nutqiy odatlar bo‘lib, obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlar hisoblanmaydi.

Agar fuqaro yoki tashkilotning huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi ma’lumot tuhmat bo‘lsa, bu endi boshqa jinoyat tarkibi sifatida ko‘riladi, ya’ni qasddan yolg‘on xabar tarqatish deb baholanadi. Fuqaro yoki tashkilotning huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi ma’lumot tuhmat bo‘lsa, bu holat qasddan yolg‘on xabar tarqatish sifatida baholanadi va jinoyat tarkibi sifatida ko‘riladi. Misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 76.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. II жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий ташкилоти, 2020. – Б. 255.

Biror kompaniya haqida “Ular soxta mahsulotlar ishlab chiqaradi va sotadi”, degan yolgʻon maʼlumotni tarqatib, kompaniyaning obroʻsini butunlay yoʻqotishga urinsa, bu tuhmatdan tashqari, qasddan yolgʻon xabar tarqatish sifatida jinoyat tarkibi boʻlib, javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bu holatda kompaniyaning huquqi buzilgan va obroʻsi zarar koʻrgan boʻladi, bu esa qonuniy oqibatlariga olib keladi. Xuddi shunday xabar ijtimoiy tarmoqlarda tegishlicha tasdiqlanmay tarqatilganda ham tuhmat sifatida qabul qilinib, huquqiy baho beriladi. Bunday huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar toʻgʻri boʻlsa, ular obroʻsizlantirish sifatida baholanadi. Misol uchun, agar bir shaxs yoki tashkilotning haqiqiy huquqbuzarliklari haqida maʼlumotlar tarqatilsa, bu obroʻga zarar yetkazgan boʻladi. Fuqarolar, jumladan, mansabdor shaxslarning shaʼni, qadr-qimmati, ishchanlik obroʻsi va yaxshi nomini himoya qilish huquqlari har doim hurmat qilinishi kerak. Tarqatilgan maʼlumotlar yoki dalillar tekshirilganda asossiz boʻlib chiqsa, tuhmat sifatida qabul qilinadi.

**X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markaziga
2022–2024-yillarda lingvistik ekspertiza boʻyicha kelib tushgan
murojaatlar toʻgʻrisida
MAʼLUMOT**

3-jadval.

T/r	Lingvistik ekspertiza qilish boʻyicha kelib tushgan murojaatlarning mazmuniy turlari	Murojaatlari soni
1.	Shaxsni haqorat qilish	129
2.	Obroʻsizlantirish	134
3.	Kamsitish	122
4.	Korrupsiyaviy holatlar borligi	15
5.	Ijrosiz qaytarilgan murojaatlar	39

Yuqorida koʻrsatilgan shaxsni obroʻsizlantirish, kamsitish va haqoratlash bilan bogʻliq murojaatlarning 39 tasi ijro etish imkoni mavjud emasligi sababli qaytarilgan (5-jadval). Bu esa ziddiyatli holat uchun xulosa berishda soʻrov yuboruvchi organlarning qarori protsessual jihatdan notoʻgʻriligi, ekspert oldiga qoʻyilgan savollarning toʻgʻri emasligi, obyekt notoʻgʻri, koʻrsatilgan ilmiy manbalar (metodik qoʻllanma va lugʻatlar)ning yetarli emasligi va shu kabi ekspertga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra lingvistik ekspertizadan oʻtkazilmagan.

